



## IJODNI ANGLASH BAXTI.

### “BUYUKLARIMIZ BAG‘RIMIZGA QAYTDI” MAQOLASI TAHLILI.

Abduraxmonova Sarvinoz

O‘zbekiston jurnalistika va omaviy kommunikatsiyalar  
universiteti, 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17724914>

#### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> November 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2025

Published: 26<sup>th</sup> November 2025

#### KEYWORDS

Mustaqillik, ma’naviy  
uyg‘onish, Ozod Sharafiddinov,  
adabiy meros, tarixiy adolat,  
qatag‘on, Cho‘lpon, Fitrat,  
Qodiriy, milliy o‘zlik, ma’naviy  
tiklanish.

#### ABSTRACT

Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinovning “Buyuklarimiz bag‘rimizga qaytdi” maqolasi asosida mustaqillik yillarida milliy adabiyotga, tarixiy adolatga va ma’naviy tiklanishga qaratilgan jarayonlar tahlil qilinadi. Adibning teran mulohazalari orqali sovet davrida taqiqlangan Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy kabi ijodkorlarning oqlanishi, ularning merosining xalqqa qaytarilishi milliy uyg‘onishning asosiy omili sifatida yoritiladi. Maqola mustaqillikning ma’naviy mazmuni, milliy o‘zlikning tiklanishi, adabiy merosning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni kabi masalalarni ilmiy-nazariy asosda ochib beradi. Sharafiddinovning fikricha, buyuk adiblar merosiga qaytish xalqning ruhiy uyg‘onishini, ma’naviy poydevorining mustahkamlanishini ta’minlaydigan bebaho jarayondir.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy hayotda balki ma’naviy taraqqiyotda ham tub burilish bo‘ldi. Ayniqsa sovet mustabid tuzumi davrida nomlari taqiqlangan, asarlari bosimga uchragan buyuk adiblarimizning merosi qayta baholanishi istiqbolning eng ulkan ma’naviy yutuqlaridan biri bo‘ldi. Shu jarayonning mazmun-mohiyatini o‘zining teran tafakkuri bilan yoritib bergan taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov “Buyuklarimiz bag‘rimizga qaytdi” maqolasida milliy uyg‘onishning butun bir bosqichini chuqur tahlil qiladi. Ozod Sharafiddinovning ushbu maqolasi bu tarixiy adolatning tiklanishi milliy o‘zlikning qayta tiklanishi o‘z merosimizga qaytish xalqning ruhiy dunyosini boyitish jarayonining yuksak ifodasidir. Maqola o‘z davrining nafaqat adabiy hodisasini balki umumxalq ma’naviyatidagi ruhiy o‘zgarishlarni ham ilk bor ilmiy tahliliy ruhda yoritib bergan yirik asardir. Sharafiddinov maqola avvalida mustaqillik tufayli xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkin fikr erkin ruh qayta tiklanganini alohida ta’kidlaydi. Sovet davrida mafkura balosi tufayli milliy adabiyotga san’atga tarixga bir yoqlama baho berilgan edi. Eng achinarlisi, milliy uyg‘onishning poydevorini yaratgan Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy kabi adiblar “xalq dushmani” sifatida qoralanadi ularning nomlarini unutishga mahkum qilinadi. Mustaqillik yillari esa bu adolatsizlikni barham topishiga yo‘l ochdi. Sharafiddinovning fikricha bu jarayon tasodifiy emas balki xalqning o‘z tarixiga o‘z adabiy merosiga bo‘lgan ehtiyojidan tug‘ilgan tabiiy jarayondir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Abdug‘aniyevich farmonlari bilan buyuk adiblarning nomi tiklanishi milliy o‘zlikning tiklanishidagi birinchi va eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ozod Sharafiddinov buni “ma’naviy uyg‘onishning yangi davri” deb ataydi. Bu uyg‘onish adabiy jarayonda ham xalqning dunyoqarashida ham o‘z aksini topdi. Sharafiddinov maqolaning muhim qismida qatag‘on yillaridagi adabiy hayotni juda keskin lekin haqqoniy tasvirlaydi. Cho‘lpon Fitrat Abdulla Qahhor kabi adabiyot namoyandalari

nafaqat siyosiy balki ma'naviy dunyo uchun ham jinoiy tarzda yo'q qilingan edi. Ularning ijod erkinligi milliy tiklanish g'oyalari ma'rifatparvarlik faoliyati sovet rejimi uchun xavfli bo'lib ko'ringan. Ammo aslida ular millatning o'sishi adabiyotning taraqqiy etishi uchun jon kuydirgan buyuk insonlar edi ma'naviyatimizning poydevor edi. Ozod Sharafiddinovning ta'kidlashicha bu adiblarni yo'q qilish xalq xotirasini milliy o'zlikni yo'qotishga qaratilgan maqsadli harakatlar bo'lgan. Ularning asarlari taqiqlangani bilan birga nomlarini ham unutishga majbur qilingan. Hattoki odamlar ularning borligini ham eslamay olmaydigan darajaga olib kelishgan. Mustaqillikka kelib esa bu "sun'iy unutish" devori buzildi va millat o'z ildizlarini qayta ko'ra boshladi. Ozod Sharafiddinov juda katta minnatdorlik bilan ta'kidlaydi. Istiqloq yillarida qabul qilingan Prezident farmonlari nafaqat adiblar ruhini, balki butun millatning sha'nini tikladi. Bu farmonlar asosida ko'plab buyuk ijodkorlarning nomlari oqlanib, merosi xalqqa qaytarildi. Maqolada qayd etilgan adiblar orasida: Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Yunus Rajabiy, Muxxidin qori Yoqubov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Juraxon Sultonov, Mamurjo Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Botir Zokirov kabi ko'plab ijodkorlar bor. Ozod Sharafiddinovning fikricha, bu farmonlar ikki jihatdan ahamiyatga ega. Birinchisi tarixiy adolat tiklandi. Ma'naviy poydevorimizni yaratgan insonlar oqlandi. Ikkinchisi kelajak uchun ibrat yaratildi. Bugungi avlod o'z otalari ajdodlari kim bo'lganini ular qanday ulkan meros qoldirganini bilib o'sishadi va ulg'ayishadi. Bu jarayon ma'naviy hayotga shu qadar kuchli ta'sir o'tkazdiki xalqning o'z tarixi va adabiyotiga ishonchi qayta tiklandi. Ozod Sharafiddinov har bir adibning taqdirini eslar ekan, ularni insoniylik maktabi deb ataydi. Adiblarning hayoti ularning halolligi matonati fidoyiligi bugungi avlod uchun ham eng yorqin ibrat va hikmat manbaidir. Misol uchun Oybek yuksak madaniyatli samimiy xalqparvar inson sifatida tasvirlanadi. G'afur G'ulom esa xalqining dardini o'z dardi deb bilgan adib deb hisoblaydi. Abdulla Qahhor esa tanqidchilikda ham hayotda ham halollik timsoli hisoblanadi. Hamid Olimjon o'z umrini adabiyot va san'atga bag'ishlagan sof niyatli ijodkor. Cho'lpon va Fitrat milliy uyg'onish davrining ramzlari. Muallif ularning barchasini ma'naviy olamimizning yorug' yulduzlari sifatida ko'rsatadi.

Ozod Sharafiddinovning eng asosiy g'oyalaridan biri shuki buyuk adiblar merosini qaytarish bu shunchaki tarixiy hujjat emas balki xalqning ruhiy yuksalishiga xizmat qiladigan jarayondir. Uning fikriga ko'ra xalq o'z adiblarini unutmas ekan millat ruhi so'nmaydi ma'naviyat barhayot bo'ladi. Bu jarayon yoshlar ongini boyitadi ularda milliy g'ururni kuchaytiradi o'zlikni anglash jarayonini jadallashtiradi. Ayniqsa bugungi globallashtiruv davrida bu merosning ahamiyati yanada oshadi. Buyuklar merosi mustahkam qala kabi millatni begona oqimlardan himoya qiladi uni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalaydi. Maqolaning o'zi ham Sharafiddinovning adabiy tafakkuridagi yuksaklikni ko'rsatadi. U buyuk adiblar bilan bir davrda yashab, ularni shaxsan taniydi ijodiga yaqindan guvoh bo'lgan. Shu sababli maqola nihoyatda samimiy teran va tarixiy ma'lumotlarga boy. Uning yozishicha adiblarning hayoti bugungi avlod uchun ma'naviy maktab, ularning merosi milliy g'urur manbai, ularning sadoqati halollikning eng yorqin timsoli. Sharafiddinov adabiy va ma'naviy jarayonni nafaqat yozuvchi, balki olim, ziyoli va fidoiy inson sifatida chuqur tahlil qiladi. Adibning fikricha, mustaqillik davrida amalga oshirilgan bu ishlar kelajak avlod uchun bebaho xazina yaratdi. Bugungi yoshlar adabiyot darsida Cho'lponni o'qiydi Qodiriy romanlarini o'rganadi, Fitratning maqolalarini tahlil qiladi. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularda Vatanparvarlik, Halollik, Fidoyilik, Ma'naviyatga sadoqat kabi fazilatlarini shakllantiradi. Bu merosni anglagan avlod millatning kelajagini ham munosib davom ettiradi. Ozod Sharafiddinovning "Buyuklarimiz bag'rimizga qaytdi" maqolasi mustaqillikning ma'naviy tarixini yoritgan eng noyob asarlardan biridir. Bu asarda buyuk adiblarning taqdiri mustaqillik tufayli tiklangan adolat xalqning ruhiy uyg'onishi ma'naviy merosning qayta kashf etilishi juda teran va hayajonli tarzda bayon etilgan. Mazkur maqolaning umumiy mohiyati shuki. Buyuklar merosiga qaytish millatning o'zini topishi o'zligini anglashidir. Millat ma'naviyati ulug' adiblar merosiga suyangan holdagina yuksaladi. Sharafiddinovning asarlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Chunki millatni millat qiladigan kuch uning merosi adabiy boyligi va buyuk farzandlariga qoldirgan bebaho xazinadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. **Sharafiddinov, O.** *Ijodni anglash baxti.* – Toshkent: Sharq, 2004.
2. **Sharafiddinov, O.** *Sadoqat.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
3. **Sharafiddinov, O.** *Yozuvchi mas'uliyati.* – Toshkent: Yozuvchi, 1983.
4. **Sharafiddinov, O.** *Tanqid – hayotning o'zi.* – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
5. **“Ozod Sharafiddinov asarlari va adabiy qarashlari”** // *InLibrary.uz ilmiy jurnali*, 2023.
6. **Shahnoza, T.** *“Ozod Sharafiddinov ijodining xarakteri va uslubi”* // *CyberLeninka ilmiy bazasi*, 2022.
7. **Karimov, I. A.** *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
8. **Qodiriy, A.** *O'tkan kunlar.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018. (Sharafiddinov tahlil qilgan adabiy meros sifatida)
9. **Cho'lpon.** *Tanlangan asarlar.* 2 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
10. **Fitrat, A.** *Adabiyot qoidalari.* – Toshkent: O'zbekiston, 2019

INNOVATIVE  
ACADEMY